



**AKADEMIK LITSEYDA “INTERNETDA XAVFSIZLIK” MAVZUSINI  
O‘QITISH VA O‘QUVCHILARDA KIBERMAKONDAGI  
TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH**

*Toshkent shahar Yashnobod tumani*

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti 3-son akademik litseyi*

**Mirzayeva Feruza Mamurovna**

*Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashtirish sharoitida akademik litsey o‘quvchilarining kiberxavfsizlik hamda internetda xavfsiz harakatlanish madaniyatini shakllantirishning pedagogik-metodik asoslari tahlil qilinadi. Muallif litsey yoshidagi talabalarning raqamli muhitda duch kelishi mumkin bo‘lgan asosiy tahdidlarini (fishing, kiberbulling, ijtimoiy injeneriya, zararli dasturlar) guruhlariga ajratgan holda yoritib beradi. Maqolada darslarda axborot xavfsizligi qoidalarini samarali o‘rgatishga qaratilgan innovatsion pedagogik yondashuvlar, keys-stadi texnologiyalari va amaliy tavsiyalar keltirilgan bo‘lib, ular yoshlarning kiberimmunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** internetda xavfsizlik, kiberxavfsizlik, akademik litsey, axborot immuniteti, kiberbulling.

**Kirish**

Yigirma birinchi asr — axborot va yuqori texnologiyalar asridir. Bugungi kunda internet nafaqat muloqot va ko‘ngilochar vosita, balki ta‘lim tizimining uzviy qismiga, bilim olishning fundamental manbasiga aylandi. Akademik litseylarda o‘quv jarayonining raqamli platformalar, elektron kutubxonalar va masofaviy ta‘lim resurslari bilan boyitilishi o‘quvchilarning internet makonida faol bo‘lishlarini taqozo etmoqda.

Biroq, global tarmoq ulkan bilimlar ombori bo‘lishi bilan bir qatorda, shaxs ma‘naviyati, ruhiyati ba xavfsizligiga jiddiy putur yetkazuvchi tahdidlar o‘chog‘i hamdir. Akademik litsey o‘quvchilari (15–18 yosh) o‘zlarining yosh xususiyatlariga ko‘ra psixologik jihatdan to‘liq shakllanib ulgurmagan, qiziquvchan va tashqi ta’sirlarga beriluvchan bo‘ladilar. Ular kiberjinoyatchilar, virtual firgarlar va yot g‘oyalar tarqatuvchilarning asosiy nishoniga aylanishi xavfi yuqori.

Shu bois, zamonaviy litsey pedagogi oldida faqatgina o‘z fanini o‘qitish emas, balki yoshlarda kuchli axborot immunitetini va “raqamli gigiyena” ko‘nikmalarini shakllantirish vazifasi turibdi. Darslarda ba darsdan tashqari



tadbirlarda internetda xavfsizlik madaniyatini tizimli ravishda o'rgatish bugungi kunning kechiktirib bo'lmaz pedagogik talabidir.

### *Kibermahallada o'quvchilar duch keladigan asosiy tahdidlar*

Internet xavfsizligini dars jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun, eng avvalo, o'quvchilar duch kelayotgan real xavflarning tasnifini aniq belgilab olish lozim. Pedagogik va sotsiologik kuzatishlar asosida ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

#### 1. Texnik va moliyaviy tahdidlar (Fishing va zararli dasturlar)

O'smirlar ko'pincha turli onlayn o'yinlar, bepul dasturlar yoki ijtimoiy tarmoqlardagi soxta yutuqli aksiyalar (lotereyalar) tuzog'iga tushadilar. Shubhali havolalarga (link) kirish oqibatida ularning shaxsiy qurilmalari viruslar bilan zararlanadi, shaxsiy ma'lumotlari (parollar, selfi-suratlar) va ota-onalarining bank kartalari ma'lumotlari kiberfirqarlar qo'lga o'tadi.

#### 2. Psixologik tahdidlar (Kiberbulling va trolling)

Virtual makonda tengdoshlar yoki anonim shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan kiberbulling (onlayn tazyiq, haqorat va kamsitishlar) litsey o'quvchilarining ruhiy salomatligiga jiddiy zarba beradi. Bu holat o'smirlarda depressiya, o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qolishi va o'zlashtirish ko'rsatkichlarining pasayishiga olib keladi.

#### 3. G'oyaviy va mafkuraviy tahdidlar (Destruktiv oqimlar ta'siri)

Internet g'arazli kuchlarning buzg'unchi g'oyalarni tarqatish poligoniga aylangan. Milliy mentalitetimizga yot bo'lgan axloqsizlik, shafqatsizlik, diniy ekstremizm va radikalizm g'oyalari ijtimoiy tarmoqlardagi turli guruhlar va kanallar orqali yoshlar ongiga simulyativ tarzda singdirishga urilmoqda.

### *Internetda xavfsizlik madaniyatini darslarda shakllantirish metodikasi*

Akademik litseylarda bu mavzuni shunchaki quruq taqiqlar ("u saytga kirmang", "buni ochmang") shaklida o'qitish kutilgan samarani bermaydi. Aksincha, bu o'smirlarda aks ta'sir (qiziquvchanlik) uyg'otishi mumkin. Shuning uchun interaktiv va muammoli o'qitish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

#### 1. Keys-stadi (Muammoli vaziyatlar tahlili) metodi

Darslarda o'quvchilarga hayotda sodir bo'lgan real kiberfirqarlik yoki kiberbulling ssenariylari yozilgan keyslar tarqatiladi.

**\*Metodik qo'llanilishi:** Sinf jamoasi kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga muayyan keys beriladi (masalan: **"O'quvchiga telegramda 'Siz 5 million so'm yutuq egasi bo'ldingiz, pulni olish uchun ushbu kodni yuboring' degan xabar keldi. U kodni yubordi ba..."**). O'quvchilar ushbu vaziyatda qahramon qayerda xatoga yo'l qo'ygani, kiberjinoyatchining usulini va



vaziyatdan qanday to'g'ri chiqib ketish lozimligini muhokama qiladilar. Bu metod talabalarda vaziyatni tanqidiy baholash ko'nikmasini rivojlantiradi.

### 2. "Raqamli gigiyena" amaliy treninglari

Informatika va axborot texnologiyalari darslarida nazariy bilimlarni to'g'ridan-to'g'ri amaliyot bilan bog'lash zarur.

*\*Metodik qo'llanilishi:\** O'quvchilar bilan birgalikda murakkab parollarni yaratish generatorlari bilan ishlash, ikki bosqichli autentifikatsiya (2FA) tizimini shaxsiy akkauntlarga o'rnatish, fishing saytlarni haqiqiysidan ajratish (URL manzilini tekshirish) kabi amaliy mashqlar bajariladi. O'quvchi o'z qo'li bilan xavfsizlik sozlamalarini o'rnatishni o'rganishi shart.

### 3. Rolli o'yinlar va munozaralar (Debatlar)

Ijtimoiy-gumanitar fanlar (ma'naviyat, huquq) darslarida virtual makondagi etika va qonunchilik masalalarini rolli o'yinlar orqali tushuntirish yuqori samara beradi.

*\*Metodik qo'llanilishi:\** Darsda "Kiberbulling: virtual haqorat uchun real javobgarlik" mavzusida sud simulyatsiyasi yoki debat tashkil etiladi. O'quvchilar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarida kiberjinoyat, tuhmat va haqorat uchun belgilangan jazolarni o'rganadilar. Bu ularda internetda ham qonun ustuvor ekanligi haqidagi huquqiy ongni shakllantiradi.

### *Pedagog va ota-onalar hamkorligi*

Internetda xavfsizlikni ta'minlash faqatgina litsey devorlari ichida hal bo'ladigan masala emas. Ko'p hollarda o'quvchilar tunu kun nazoratsiz ravishda internet olamida bo'ladilar. Shu sababli, o'qituvchi ota-onalar bilan doimiy pedagogik hamkorlikni yo'lga qo'yishi kerak.

Ota-onalar majlislarida maxsus SI va raqamli vositalar, masalan, "Parental Control" (Ota-ona nazorati) dasturlarini qurilmalarga o'rnatish, farzandning tarmoqdagi vaqtini to'g'ri taqsimlash (taym-menejment) bo'yicha uslubiy tavsiyalar berib borilishi lozim. Eng asosiysi, ota-ona va farzand o'rtasida virtual muammolarni yashirmasdan, ochiq muhokama qila olish ishonchini yaratishga ko'maklashish zarur.

### **Xulosa:**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, internetda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish akademik litseylardagi zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Yoshlarni global tarmoqdan butunlay uzib qo'yish imkonsiz va asossizdir, zero taraqqiyotni to'xtatib bo'lmaydi.

Asosiy maqsad — ularni taqiqlash emas, balki internet imkoniyatlaridan to'g'ri, xavfsiz va samarali foydalanishga o'rgatishdir. Darslarda tizimli ravishda kiberxavfsizlik qoidalarining interaktiv metodlar orqali singdirilishi,



litsey talabalarining nafaqat bilimli mutaxassis, balki raqamli dunyoda o'z huquq va majburiyatlarini biladigan, har qanday axborot xavfiga qarshi mustahkam qalqonga ega bo'lgan barkamol shaxs bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2022-yil 15-aprel, O'RQ-764-son.
2. Abduqodirov A. A., Toshtemirov D. E. Ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish uslubiyoti. — Toshkent: "Navro'z" nashriyoti, 2019. — 240 b.
3. Maraximov A. R., Rahmonqulova S. I. Internet va undan foydalanish asoslari (O'quv qo'llanma). — Toshkent: "O'zbekiston", 2015. — 186 b.
4. Gulyamov S. S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari va kiberxavfsizlik asoslari. — Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2020. — 312 b.